

JAZODAN OZOD QILUVCHI NORMALALAR

Tursunov Behruz Normurod o'g'li

Termiz Davlat Universiteti "Yuridik" fakulteti "Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi"
kafedrasi o'qituvchisi.

Telefon: +998 (97)-191-66-00.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14558768>

Annotatsiya. Ushbu maqolada jazodan ozod qiluvchi normalalar, ularning huquqiy tizimdag'i o'rni va ahamiyati ko'rib chiqiladi. Jazodan ozod qiluvchi normalalar jinoyat kodeksi va sud amaliyotida belgilangan qoidalar bo'lib, shaxslarni jazodan ozod qilish yoki jazoni yengillashtirish imkonini beradi. Maqolada ushbu normalarning turlari, ularning qo'llanilishi, xalqaro tajriba va statistikalar ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Jazodan ozod qiluvchi normalalar, jinoyat kodeksi, reabilitatsiya, amnitsiya, afv, ijtimoiy xizmatlar, qayta tiklanish.

EXEMPTION NORMS

Abstract. This article examines the norms of exemption from punishment, their role and significance in the legal system. Exemption norms are rules established in the Criminal Code and judicial practice that allow individuals to be exempted from punishment or to mitigate punishment.

The article also examines the types of these norms, their application, international experience and statistics.

Keywords. Exemption norms, Criminal Code, rehabilitation, amnesty, pardon, social services, rehabilitation.

НОРМЫ ОСВОБОЖДЕНИЯ ОТ НАКАЗАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются нормы, освобождающие от наказания, их роль и значение в правовой системе. Нормы, освобождающие от наказания, – это определенные в уголовном кодексе и судебной практике правила, позволяющие освободить лицо от наказания или смягчить наказание. Также в статье рассматриваются виды этих норм, их применение, международный опыт и статистика.

Ключевые слова: нормы освобождения от наказания, уголовный кодекс, реабилитация, амнистия, амнистия, социальные услуги, реабилитация.

Inson jinoyat sodir etar ekan uning sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga nisbatan, jazo tayinlanishi muqarrar. Agar sodir etgan aybli ijtimoiy xavfli qilmishga nisbatan jazo tayinlanmasa har bir shaxs o'z bilganicha boshqa fuqarolarni huquq va erkinliklarini paymol qiladi va undan foydalanadi, taraqqiyot inqirozga yuz tutadi. Jamoat tartibini bir me'yorda ushlab turish uchun davlat jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo va huquqiy ta'sir choralarini belgilagan.

Shuningdek davlat jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ularni axloqan tuzalish yo‘liga kirishi, yangi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishini oldini olish, jamiyatdagi jinoyatlarni kamaytirishni ko‘zda tutgan holda ularga nisbatan jazo tayinlaydi.

Jazodan ozod qilish jinoyat sodir etilganligi uchun sudlangan shaxsga qununchilikda belgilangan asoslar va shartlar mavjud bo‘lganda jazodan ozod qilish yoki jazoni yegillashtirish ifodalanadigan normalar yig’indisi hisoblanadi.

Shuningdek jazodan ozod qilish jinoyat huquqi yoki boshqa tegishli qonunchilikka muvofiq, shaxsga tayinlangan jazoni to‘liq yoki qisman qo‘llanilishi yoki uni yengilroq ta’sir chorasisiga almashtirilishida ifodalaniladi. Umuman olganda, jazodan ozod qiluvchi normalar bo‘yicha xalqaro tashkilotlarning fikrlari mavjud. BMT jazodan ozod qilish normalarini inson huquqlariga hurmat bilan musosabatda bo‘lib amalga oshirishni talab qiladi. Shaxsni jazodan ozod qilishning asosi qatag’on yoki adolatsiz hukm emas, balki insonparvarlik tamoyillariga asoslangan bo‘lishi kerak. Xalqaro jinoyat sudi (International Criminal Court- ICC) bunday jinoyatlar uchun jazodan ozod qilish adolat tamoyillariga zid va jabrlanuvchilarining huqularini buzadi deb hisoblaydi. Transparency International jazodan ozod qilish davlat organlari tomonidan korrupsiya vositasi sifatida ishlatilmasligini talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 13-bobi 69-67 moddalari jazodan ozod qilish tartibotlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu moddalarda jazodan ozod qilishning usullari shartlari va asoslari belgilangan. Bu normalarni qo‘llash vakolatli davlat organi va eng asosiysi sud tomonidan shaxs o‘z aybiga amalda pushaymon bo‘lganligi, qilmishining oqibatlarini bartaraf etganligi, jinoyat ochilishiga faol yordam bergenligi kabi ijtimoiy foydali sabablarga binoan amalga oshriladi.

Qonunchilikka muvofiq jazodan ozod qilish turlari belgilab quylgan. Jazodan ozod qilish kabi javobgarlikdan ozod qilish ham qonunchilikda nazarda tutilgan. Bu ikkala norma bir biriga o‘xhash bo‘lsada, aslida ularning farqli jihatlari mavjud, javobgarlikdan ozod qilish dastlabki tergov va surishtiruv jarayonlarida qo‘llaniladi, jazodan ozod qilish sudda ya’ni hukm qonuniy kuchga kirgandan so‘ng qo‘llaniladi.

Jinoyat kodeksiga binoan jazodan ozod qilishning quyidagi turlari belgilab quylgan:

- jazoni ijro etish muddati o‘tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish;
- shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotishi munosabati bilan jazodan ozod qilish;
- aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish;
- shartli hukm qilish;
- jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari ozod qilish;
- jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish;

- kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotish munosabati bilan jazodan ozod qilish;
- amnitsiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish.

Yuqorida ko‘rsatilgan asoslarga binoan jazodan ozod qilish normalari qo‘llaniladi.

Mamlakatimizda afv etish amaliyoti Prezident farmonlari orqali amalga oshiriladi. 2016-2021 yillar davomida 17ta Prezident farmoni qabul qilinib, ular asosida jami 6 685 nafar shaxs afv etilgan. Yillar kesimida afv etilgan shaxslar quyidagilarni ko‘rsatgan:

- 2016-yil 10 nafar;
- 2017-yil 2 700 nafar;
- 2018-yil 623 nafar;
- 2019-yil 776 nafar;
- 2020-yil 616 nafar;
- 2021-yil 455 nafar.

Afv etilganlarning 2 647 nafari jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan bo‘lib, shulardan:

- 1 227 nafar asosiy jazodan to‘liq ozod qilingan;
- 990 nafar muddatidan ilgari shartli ozod etilgan;
- 430 nafarining o‘talmagan jazosi axloq tuzatish ishlari jazosiga almashtirigan.

Shuningdek, 2 515 nafar shaxsning o‘talmagan jazosi qisqartirilgan:

- 490 nafarining jazosi teng yarimiga;
- 1420 nafarining jazosi uchdan biriga;
- 605 nafarining jazosi to‘rtadan biriga qisqartirilgan.

Ushbu raqamlar O‘zbekistonda afv etish amaliyotining keng ko‘lamda qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 2017-yida rekord darajada 2700 nafar shaxs afv etilgan.

Afv etish jarayonida shaxslaring qilmishiga pushaymonligi, tuzalish yo‘liga o‘tganligi va jamiyatga qayta interegatsiya qilish imkoniyatlari e’tiborga olinadi. Bu esa mamlakatda insonparvarlik tamoyillariga asosalangan jazoni ijro etish siyosati olib borilayotganini anglatadi.

Shuningdek, jazodan ozod qilish xalqaro tajribada ham o‘z aksini topgan. Xalqaro tajribada jazodan ozod qilish davlatlarning siyosati va jinoiy huquqiy amaliyotida muhim tamoyillardan biri bo‘lib, jazolashning maqsadi va oqibatlarini hisobga olgan holda, jinoyatchiga nisbatan muqobil choralarni qo‘llashni nazarda tutadi. Bu yondashuv ko‘pincha jazolash emas, balki qayta tarbiyalish va ijtimoiy integratsiyani ta’minalashga qaratilgan. AQSHda ko‘proq jazodan shartli ozod qilish tizimi qo‘llaniladi. Federal va shtat darajasidagi maxsus komissiyalar shaxsning xulq-atvorini baholab, jazoni qisqartirish haqida qaror qabul qiladi. Yevropa davlatlarida restorativadolat va muqobil choralarga e’tibor qaratiladi. Masalan, Niderlandiya va Norvegiyada jinoyatchilarni reabilitatsiya qilish dasturlari keng qo‘llaniladi.

Yaponiyada jinoyatchilarni jazodan ozod qilishni faqat chuqur tavba qilgan holatlarda qo'llaydi. Bu yerda ijtimoiy reabilitatsiya jarayonlari alohida e'tiborga loyiq. Skandinaviya mamlakatlarida jinoyatchini jamiyatga qayta integratsiya qilishga qaratilgan progressive choralar qo'llaniladi. Qamoqxonalar o'rniqa ta'lim va mehnat dasturlari keng tarqalgan. Rossiya qonunchiligidagi jazodan ozod qilish normalari bizning mamlakatimizga o'xshash holda begilangan.

Rossiya qonunchiliga ko'ra jinoiy jazodan ozod qilishning bir necha asosiy turlari mavjud.

Bu jarayon Jinoayat kodeksi va boshqa tegishli hujjatlarida belgilangan. Quyidagi asosiy holatlar keltiriladi:

-jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bu jarayonda agar jinoyat tarkibi aniqlanmasa yoki aybdorning xatti-harakati jinoyat sifatida baholanmasa, shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. Dalillarning yetishmasligi sababli sud yoki tergov organlari shaxsni javobgarlikdan ozod qilishi mumkin

-jazodan ozod qilish bunda amnitsiya akti Rossiya Davlat Dumasi tomonidan qabul qilinadi. Bu orqali ayrim shaxslar jazodan ozod qilinadi yoki jazolar yengillshtiriladi. Afv etish Prezident tomonidan amalga oshiriladi va individual shaxsga nisbatan qo'llaniladi.

-jazoni o'tashdan ozod qilish, sog'liqning og'ir yomonlashuvi ya'ni shaxsning sog'lig'i jazoni o'tashni davom ettirishga imkon bermasa, muddat o'tishi jinoyat sodir etilgan vaqtidan ko'p vaqt o'tgan bo'lsa shaxs jazodan ozod qilinishi mumkin.

-muddatidan oldin shartli ozod qilish mahbus jazoni qisman o'taganidan so'ng yaxshi xulqatvori, qilmishiga pushaymonligi va tuzalish belgilariga qarab sud qarori bilan jazodan oldin ozod qilinishi mumkin.

-jinoiy javobgarligini tugatish bunda kichik ahamiyatga ega jinoyatlar ya'ni jinoyat kichik darajada zarar keltirgan yoki qasddan bo'limgan hollarda javobgarlik bekor qilinishi mumkin. Tomonlarning yarashuvi jabrlanuvchi va aybdor o'rtasida kelishuvga erishilgan bo'lsa.

Rossiya Jinoyat kodesining tegishli moddalarida ushbu qoidalar tafsilotlari bayon etilgan. Masalan, Jinoyat kodeksi 84-moddasi - Amnitsiya, 85-modda-Afv etish, 79-moddasi - Muddatidan oldin shartli ozod qilish. Umuman olganda, Rossiya qonunchiligidagi normalar bizning adolatli huquiy tizimimizga o'xshash bu mamlakatda ham inson huquq va erkinliklari inobatga olinadi. Jinoyat sodir etgan shaxslarga qo'llaniladigan jazo va huquqiy ta'sir choralarini adolatli bo'lishini kafolatlaydi.

Xalqaro tajribada jazodan ozod qilish amaliyoti jamiyat manfaatlarini himoya qilish bilan birga insonparavrlik tamoyillarini ham qo'llab -quvvatlaydi. Shu bilan birga, bu jarayon suiste'molliklar va adolatli huquqiy tartibni buzmasligi uchun qa'tiy nazorat ostida amalga oshirilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, Ushbu jarayonlar, odatda, jamiyatning xavfsizligini ta'minlash va mahbuslarning reabilitatsiyasiga xizmat qiladi. Har bir mamlakat o'z huquqiy va madaniy xususiyatlariga ko'ra turli uslublardan foydalanadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi xalqaro huquq tamoyillariga asoslangan va ularning adolatli, insonparvar, ijtimoiy reabilitatsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi huquqiy qoidalar sifatida xizmat qiladi. Bu moddalarda belgilangan tartiblar, mahkumlarning huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy moslashuvni ta'minlash va jinoyatchilarining qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirishga qaratilgan. Shunday qilib, O'zbekiston Jinoyat kodeksi xavfsizligi va adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – T.: «Yuridik adabiotlar publish», 2023 y.
2. Huquqiy tizim va jinoyat sodir etgan shaxslar - Abdullayev.A (2020) O'zbekiston huquqiy jurnali.
3. Jinoyat va jazolar: nazariya va amaliyot - Qodirov S (2019) Toshkent O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti
4. <https://constitution.uz>
5. <https://kun.uz>
6. <https://x.com/intlcrimcourt>
7. <https://uz.usembassy>
8. <https://www.xushnudbek.uz>